
MINI-FUTBOL BO'YICHA DXX KUBOGI TUMAN BOSQICHI G'OLIBI ANIQLANDI

Toshloq tumanida mahalla yoshlari o'rtasida sportning mini-futbol turi bo'yicha "Davlat havfsizlik xizmati raisi kubogi" musobaqalarining tuman bosqichi bo'lib o'tdi.

Musobaqa doirasida tumandagi 51 ta mahallalardan 51 ta jamoa ishtirok etdi. Bahslarda 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 300 nafardan ziyod sportchi yoshlar g'oliblik uchun bellashdilar.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 1- o'rin 3-sektor hududidan So'filar MFY jamoasiga, 2-o'rin 3-sektor hududidan Satta MFY jamoasiga hamda 3-o'rin 1-sektor hududidan Chek MFY jamoasiga nasib etdi.

2024-05-29 10:22:28